



“HURMAT” SEMANTIK MAYDONINI TASHKIL ETUVCHI TIL
BIRLIKLARINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Ismoilov Xurmatillo To‘lqinjon o‘g‘li

Andijon davlat universiteti Filologiya fanlari falsafa doktori

Pratova Gulshoda O‘tkirbek qizi

Andijon davlat universisteti Filalogiya fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsioya: *Ushbu maqola "Hurmat" konseptining semantik, ya'ni ma'noviy maydonini tashkil etuvchi birliklarning pragmalingvistik tahlillarini o'rganishga bag'ishlanadi. Kalit so'zlar : Hurmat, semantik maydon, qiyoslash, pragmatika, lingvistika, muloqot turlari, nutq, o`xshatish komponentlari, adresant*

Hozirgi kunda pragmatika o‘zining alohida obyekti va muammolari bilan tilshunoslar diqqatini tortmoqda. Pragmatikaning ana shunday obyektlaridan biri ma'lum bir tilda mavjud bolgan nutqiy odatlardir. Jahon tilshunoslarining e'tibori o'zaro muloqot, turli xalqlar uchun xos bolgan nutqiy aloqa bilan bog'liq muammolarga, kommunikatsiyaning milliy-madaniy belgilarini alohida o'rganishga jiddiy qaratilmoqda. Bu e'tibor, qiziqishlarning natijasi o'laroq nutqiy odat, uning birliklari, nutqiy odat vaziyatlari bilan aloqador bo'lgan masalalar xususida ko'pchilik tilshunos olimlarning tadqiqotlari yuzaga keldi. Jumladan, V.M.Alpatov, N.D.Arutyunova, V.N.Golovin, S.Mominov, Sh.Iskandarova, M.Hakimov, Sh.Safarov, Sh.Usmonova, D.Xudoyberganova singari qator tilshunoslar nutqiy odatlarga xos bolgan muloqotning milliy belgilarini shu xalqlar doirasida, shuningdek, boshqa xalqlar bilan qiyosiy jihatdan organdilar.[1.1.269-b]

“Til birliklarini kontekst, nutq vaziyati bilan boglab o'rganishgina ularning ma'nosini to'g'ri tushunishga katta imkon beradi. Bu esa til birliklarining pragmatik tomoniga qiziqishni kuchaytiradi”. Pragmatika inson tilidagi hatti-harakatlarning to'laqonli va chuqurroq bo'lishini talab qiladi. “Nutq jarayoni, insonning nutqiy faoliyati uning rang-barang (chunonchi: ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, manaviy, madaniy va h.k.) ijtimoiy va tabiiy faoliyati bolganligi sababli, pragmatikada nutqiy faoliyat insoniy faoliyatning qolgan o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Shuning uchun struktur (sistem) tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o'rgansa, pragmatika diskurs (muloqot, o'zaro-fikr almashuv, kommunikatsiya, aloqa-aralashuv, sozlashuv) tizimini organadi. Oddiy qilib aytganda, nutqiy muloqotni yaxlit bir tizim sifatida — bu jarayonning barcha lisoniy va nolisoniy omillari bilan uzviy bogliqlikda, hamkorliqda o'rganuvchi fandir. Shuning o'zi pragmatika nutq va ahloqiy, insoniy xatti-harakat, ruhiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan o'nlab fanlarning kesishish nuqtasida turishidan darak bermoqda”. [2.1.267-b]

Ma'lumki, tilda inson shaxsini hurmat qilish, ezozlash, sharaflash, erkalash, suyish, xushmuomalalik, xushomadni ifodalovchi qator til vositalarini qollash odat tusiga kirgan. Ular badiiy uslubda, badiiy asarlarda ularga bezak berishda bir sozni qayta-qayta takrorlash o'rniga o'sha so'z ma'nosini beruvchi so'z o'rnida ishlatiladi. Masalan, yuqorida ko'rib o'tilganidek, ota so'zini o'rniga padari buzrukvor, valinemat, ulug' zot kabilarni qollash



mumkin. Otabekning bu javobidan yolgiz Akram hojigina emas, balki majlisning boshqa a'zolari ham ajablandilar. Otasining valinematini bo'lgan bir bekning zulmini iqror etish haqiqatdan ham taajjubga loyiq edi.

Ma'lumki, pragmatika nutq jarayoni mahsuli bolib, u insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassam etadi. "Pragmatika insoniyat tomonidan lisoniy belgilardan foydalanishning barcha shart-sharoitlarini, vaziyatlarini o'rganishni ko'zda tutadi. Shart-sharoitlardan, vaziyatlardan foydalanish deyilganda, lisoniy vositalardan ularga mos keladigan, adekvat vositalardan foydalanish, bu orqali suhbatdoshga kommunikativ tasir qilish usul va vositalari tushuniladi". A.Matkarimovanning takidicha, "Hurmat" semantik maydonining lingvopragmatik xususiyati deganda, uni ifodalovchi vositalarning mazmuni (asosiy va qoshimcha manolari), vazifasi, qo'llanilishi, kommunikativ-pragmatik tomonlari nazarda tutilishi to'g'ridir hamda hurmat semantik maydonini ifodalovchi til vositalarining lingvopragmatik jihatdan tadqiqi muloqotda pragmatik xatolarga yol qoyilmaslikka doir bilimlarni oshirish imkoniyatini kengaytiradi. [3.3.172-b]

"Lingvistik atamalar lugati"da pragmatikaga quyidagi tarif berilgan: "Pragmatika — til birliklarini tizimdan ajratuvchi va uni o'rganuvchi hamda tildan foydalanuvchilarga nisbatan til vositalarining munosabatini korsatuvchi til tahlilining asosiy korinishlaridan biridir".

"Til birliklarining sintaktika va semantikasi bu birliklarning to'liq tavsifi uchun kamlik qiladi. Sintaktika va semantikaga pragmatika qo'shilgandagina, ular o'zining haqiqiy talqinini topadi. Semantika masalalarini o'rganish kuchaygan bir paytda pragmatikaga e'tibor berilishi bejiz emas. Chunki semantikaning tekshirish ko'lamini g'oyat kengayib ketganligi tufayli uni bir oz yengillatishga, ma'noning kontekst bilan bog'liq qismidan xalos etishga to'g'ri keldi. Nutq vaziyati bilan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil etadi". Shu o'rinda biz tabrikni lingvopragmatik jihatdan tahlil qilsak, ikkinchi shaxsga bo'lgan murojaatni, hurmatni, maqto'vni va nihoyat tilakni ko'rishimiz mumkin. Masalan, Aziz va muhtaram hamkasblar! Sizlarni kasb bayrami bilan chin dildan muborakbod etaman. Sizlarga uzoq umr, sihat-salomatlik, kelgusi faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman. Hamisha omad yor bolsin.

Ushbu vaziyatda so'zlashuvchilarga tushunarli bolishi uchun pragmatikaga ehtiyoj ortadi.

Jumlaning ifoda maqsadiga kora turlari, obyektiv mazmun bilan ifodalangan shakl ortasidagi munosabat, shakl va mazmun ortasidagi tengsizlik holatining nutqdagi tasiri qabi masalalar ham pragmatikaga kiradi. "Men" va "boshqalar" ortasidagi munosabatni korsatuvchi nutqiy etiket, hurmat ifodasining usullari ham pragmatikaning organish sohasi sanaladi.

Pragmatikaning organish sohalaridan eng muhimi presuppozitsiyadir. Ingliz va ozbek adabiy tillari uslubi (nutqi) haligacha yetarli organilmagan. B.Orinboyev sozlashuv nutqining belgilaridan biri bolgan dialogik nutq va uning qay darajada XVI-XX asrlarda rivojlanganligi organilganini takidlab otgan.[5.7.28-31-b]

"Hurmat" semantik maydonini tashkil etuvchi vositalardan ikki yoki bir nechtasining birga qollanishini kuzatish, ularning orinli-noorin, tog'ri-notog'ri qollanishiga ham e'tibor berish kerak. Bazan nutqiy maqsad va vazifa taqozo qilmaganida ham felning shaxs, son va "hurmat" qoshimchasi bilan kishilik olmoshovi, otning shaxs, son va "hurmat" qoshimchasi



bilan kishilik olmoshining qaratqich kelishigi ayni bir gapda ham ega, ham kesim -lar bilan qollanadi.

“Hurmat” semantik maydonining lingvopragmatik jihatlarini ifodalashda verbal va noverbal vositalar mavjud. Verbal vositalarga quyidagilar kiradi:

felning hurmatga dahldor shakli (shaxs, son va hurmat qoshimchasi),

felning o'zak-negizi, otning egalik shakli (shaxs, son va hurmat qoshimchasi),

otning o'zak-negizi, otlashgan soz (shaxs, son va hurmat qoshimchasi bilan),

olmosh, olmoshning o'zlari, bular, ular, sizlar, senlar, bizlar kabi turlari, son (ot o'rnida qollanuvchi soz),

sifat, ikki otning ozaro birikuvi, ot bilan olmoshning birikuvi, ohang, ravish, ravishdosh, sifatdosh va boshqalar.

Noverbal vositalarga egilib, tazim qilib, qolini koksiga qoyib salom berish, ijtimoiy munosabat (qol qovushtirib turish, boshini egib turish, tik qaramaslik, ikki qollab sorashish, orqasidan borish, orqada turish, orqa bilan chiqib ketish, yuz ifodasi, kulimsirab gapirish, ovozi kotarmasdan gapirish, kayfiyati va vaqtiga qarash, kasbiga, mansabiga) va hokazolar kiradi.

Bu vositalarning hammasi ham “hurmat”ga bir xil munosabatni ifodalamaydi. Ulardan ayrimlari “hurmat”ga yuqori darajani korsatsa, boshqalari quyiroq darajani korsatadi. Yani bunda ayrim vosita “hurmat”ni ozi ifodalasa, boshqasi betarafdir. Betaraflikdagi vosita “hurmat”ni ham “hurmat”ga zid manoni ham ifodalamaydi. Ularning ayrimi nutqda saqlanib qoladi. Ayrim betaraf vositalar matn yordamida “hurmat”ni ifodalaydi.

Ozbek xalqining milliy urf-odatlariga kora turli marosimlar va yiginlar otkaziladi. Bunday hollarda har doim ham salomlashish uchun bir xil vaziyat bolmaydi. Natijada marosim ishtirokchilarining turli noverbal usullar yordamida salomlashishi odat tusiga kirgan. Bu vaziyat taqazosiga ko'ra hurmatsizlikni bildirmaydi. “Odatda, o'zbek xalqining urf-odatlariga ko'ra, erkaklar, mahalla ahllari, masjid qavmlari bilan birgalikda kopchilik bo'lib kirib keladilar. Ularga imomlar, ahli ilmlar, hurmatli qariyalar yolboshchilik qiladilar. Katta jamoatni boshlab kelayotgan kishilar juda ziyrak va hushyor kishilar boladilar. Ular bunday katta yiginlarda sorashish va salomlashish odobini juda yaxshi ozlashtirgan bolib, agar ozlari kutib oluvchilar bilan qol berib so'rashib qo'ysalar, orqadagilar ham beixtiyor shunday qilishlari, oqibatda keluvchi va ketuvchilar mahtal bo'lib qolishlarini tajribadan biladilar. Shuning uchun o'ng qo'l ni ko'ksiga qo'yib masofadan turib ko'z bilan so'rashishni ma'qul ko'radilar”.

Bunday holatni M.Saidxonov quyidagicha ifodalaydi. “Noverbal vositalar, asosan, biologik holatning mahsuli bo'lib, aloqa-aralashuvning yuzaga chiqishini taminlovchi vosita sanaladi, shuningdek, verbal vositalar yetkazib berolmagan fikrni noverbal vositalar yordamida to'laroq ifodalash imkonini beradi”. Noverbal vositalar nutq vaziyati, sharoiti, muloqot jarayoni, bir-biriga munosabati, adresat va adresantlarning o'zaro yoshi, jinsi, mavqei, milliy-madaniy hamda jamiyatda tutgan o'rni kabi omillarga bog'liq. Masalan, podsho ikkala qo'lini bir-biriga urib o'z vazirini yoki boshqa kimsani chaqiradi. Bu faqat podshoga xos bolib, bu kabi vaziyat boshqalar tomonidan amalga oshirilmaydi. Yoki tazim bajo keltirish: Tashqari eshikdan tazim qilib kirgan choshnagir ayol ovozi qorquv bilan



pasaytirib xabar berdi. — Osmonda yulduzlar siyrak qoldi. Hademay tong yorishur. Hazrati oliy saharliksiz qolurlarmu? (Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. -B.13)

Qo'lini ko'ksiga qo'ymoq: Podshoh otasi bilan muomalaga yaxshi o'rgatilgan o'n yashar bola darhol sergaklanib, qo'lini ko'ksiga qo'ydi: — Labbay, Hazratim!.. — Mening bu gaplarimni sen ham esda tutgil. Bobur mirzo sendan faqat ikki yosh katta bo'lsa ham, agar mening o'rnimda qolsa, sen unga farzanddek sodiq bo'lgil. — Xo'p, Hazratim!.. Bola otasining so'zlaridagi ma'noni durust tushunmagani uchun bunchalik tez va oson “xop” dedi. (Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. -B.15) Ikki bukilib tazim qilmoq: Tong endi otgan, hali oftob chiqmagan bolsa ham kopchilik beklar va mulozimlar devoniomda hozir erdilar. Hammalari Mirzoni tazim bilan qarshi oldilar. Zarbof ton kiygan, beliga tilla kamar boglagan sersoqol eshik oga birinchi vazir darajasidagi eng katta bek edi. Mirzo unga yuzlanib, qayerdan chopar borligini soradi. — Hazrati oliylari, Isfaradan. Eshik oga ikki bukilib tazim qilar ekan, yuzi tund korindi. (Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. -B.15)

Yuqoridagi gaplarda aks etgan harakatlar asosan tarixiy romanlarda yuqori tabaqa vakillariga nisbatan hurmat-ehtirom ifodasi sifatida qollanilgan. Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlarida boburiylar hukmronligi davri aks etgan bolib, asosan Hindistonda kechgan va romanlarda ham osha xalqning urf-odatlarini bevosita shakllangan. Yana bir hindlarning muloqot madaniyatiga xos noverbal vositalardan bu ikki qolini juft qilib tazim qilishdir. Xamida endi Nizomning kozi oldida chomilishdan uyaladi. Yoshi yigirma beshga kirib, hiyla bosiq va sipo yigit bolib qolgan. Nizom ham Xamida bonudagi bu o'zgarishlarni ma'qul ko'rgan kabi bosh iringab, kulimsiraydi, unga salom berganda ikki kaftini peshonasi ustiga juftlab, yengil bir tazim bajo keltiradi, shu bilan kiborlar jamiyatiga mansub bolgan qizni ozidan hiyla baland qoygandek boladi (P.Qodirov. Xumoyun va Akbar. —B.48).[6.2.78-b]

Hurmat ifodalashning verbal va noverbal ifodalari tinimsiz ozgarish jarayonida: yangilari paydo boladi, ayrimlari istemoldan chiqadi, fursat otib yana istemolga qaytishi mumkin. “Hozirgi kunda yosh yigitlar boshlarini bir-birlariga urushtirib salomlashishni odat qilib oldilar”, - deydi tadqiqotchi Q.Sh.Kaharov. “Nemislarda ham salomlashishda ozaro masofa yaqinligi muhim orin tutadi. Oila azolari, qarindosh-uruglari yoki dost-birodarlari bilan bazan quchoqlashib, gohida qol berib va bazan oddiygina “Hallo”, deb qolni silkib sorashilsa, rasmiy doiralarda qol berib sorashish yoki bu doirada ayol kishi bolsa, uning mavqeidan qati nazar (rahbar, kotiba yoki oddiy xodim), avvalo, ayol kishi bilan so'rashiladi”.

O'zbek xalqida salomlashishning korinishlari kop bolsa ham keng tarqalgan paralingvistik vositalardan biri qolni ko'ksiga qoyib salomlashish hisoblanadi. “Qo'lni ko'ksiga qo'yib salomlashish salomlashishning eng ma'qul shakllaridan bo'lib, erkaklar orasida keng tarqalgan. Odam o'ziga yaqin, sevgan, hurmat qilgan, mehribon, qadrdon bo'lgan, do'st kishisini uchratganda, o'ng qo'lini chap ko'ksiga, ya'ni yurak ustiga qoyib salomlashish ana shundan kelib chiqqan. Eng muhimi, bu noverbal holat astoydil (forscha-arabcha: az tahi dil), yani chin yurakdan degan ma'noni anglatadi. Salomlashishning bu shakli besh xil vaziyatda:

1. Kocha-koyda tanish-bilishni uchratganda;
2. Hurmatli odamni korganda;
3. Tanish bolmasa ham keksa odam yonidan otib ketayotganda;



4. Kopchilik otirgan izdahomga kirganda;

5. Qo'l berib korishish mumkin bolmagan boshqa hollarda ana shu tazim bajo keltiriladi”.

Sh.Safarov monografiyasida bir qator olimlar fikrlarini dalillaydi. “J.Lich, S.Levinson, P.Braun, R.Lakoff, G.Kasper va boshqalar muloqot boshqaruvida hurmat semantik maydoni uning samarali kechishini taminlovchi asosiy manba ekanligini takidlaydilar. Pragmalingvistik talqinda esa hurmat semantik maydoni ijtimoiy munosabat maydoni bolib, u hamkor-suhbatdosh shaxsiga ehtirom mazmunidagi ushbu semantik maydon lisoniy va nolisoniy muloqotning barcha turlariga xosdir. Hurmat semantik maydoniga amal qilgan holdagina ijtimoiy munosabatlar samaradorligiga erishish mumkin, chunki “ijtimoiy muvozanat va dostona munosabatni saqlash” muloqotda muvaffaqiyat omilidir. J.Lich hurmat semantik maydonini quyidagicha tariflaydi: “Qopol fikr va hukm ifodasini imkoni boricha (mavjud vaziyatni inobatga olgan holda) kamaytirish”.

J.Lich hurmat semantik maydoni voqelanishining oltita hech qanday isbotni talab qilmaydigan qoidalarini korsatgan:

“Bu qoidalar quyidagilar:

1. Xushmuomalalilik, nazokat, odob qoidasi (suhbatdosh urinishlari “sarfi”ni kamaytir; uning foydasini kopaytirishga harakat qil).

2. Himmat, olijanoblik qoidasi (oz foydangni kamroq kozla, barcha “sarf”ni oz zimmangga ol).

3. Maqullash, tahsin qoidasi (ozgalarni yomonlama, giybat qilma, koyima).

4. Kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi (oz-ozingni maqtashni keskin kamaytir).

5. Rizolik, murosasozlik qoidasi (tortishuvlardan qoch, murosaga urin).

6. Xush korish, mayl, yoqtirish qoidasi (xayrixoh, oqkongil bol)”.

Yuqoridagi qoidalarni tan olgan holda, biz barcha sanab otilgan qoidalarda gender jihatlar alohida hisobga olinishini aytib otmoqchimiz.

Shu o'rinda Prezidentga yuborilgan tabriklarni olaylik: Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Janobi oliylariga!

Bunday murojaat usuli Prezidentga bolgan hurmat, yuksak ishonch va etiborni bildiradi.

Hurmat semantik maydonining asosiy mazmunini xushmuomalalik tashkil qiladi. “Til tizimida mavjud bolgan vositalarning tanlovi kopincha muloqotning nolisoniy (ekstralingvistik) xususiyatlari bilan bogliq boladi. J.Lich keltirgan hurmat semantik maydoni qoidalarining asosiy mazmunini quyidagicha tavsiflash mumkin: agarda xushmuomala bolishni istasang yoki shunday korinish niyating bolsa, xatti-harakatda va nutqda odobli, himmatli va kamtarin bol, suhbatdoshingga salbiy munosabatda bolma va imkoni boricha uning fikrini qo'lla”. [8.7.156-b]

Albatta, bu orinda til meyorlarini ham unutmaslik lozim. Nutqiy muloqot real nutqiy vaziyatda oydinlashadi. [15.13.29-b]

Muloqotning samarali kechishida adresat va adresantning til bilish darajasi muhimdir. Shundagina ular vaziyatni togri anglashi va bir-birlarini tola tushunishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Nutq jarayonida so'lovchi va adresatning mavqeini aniqlash tilshunoslarning diqqat markazida turgan muammolardan biridir. Interaksiyada ishtirok



etayotganlar til vositalarini, eng avvalo, kishilik olmoshlarining funksional vazifalariga hamda ularni situatsiyaga qarab o'zgarib turishiga e'tiborlarini qaratganlar. Ma'lumki, kishilik olmoshlari kommunikatsiyada asosiy va yetakchi til birligi bo'lib xizmat qiladi, ularsiz muloqotni tasavvur qilish qiyin. Dunyodagi barcha tillarda kishilik olmoshlari mavjud va ularning o'z tizimi shu bilan birga nutqda bajaradigan vazifalari bor. Bir kishilik olmoshi bajaradigan funksional vazifani ikkinchisi bajara olmaydi. Xususan, G.Zikrillayev kishilik olmoshlarida hurmat ma'nosi ifodalanishini mazmuniy uzv sifatida tavsiflaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. — Toshkent: Fan, 1992. — 296 b.
2. Nurmonov A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. — Andijon, 1992.—36 b.
3. Nurmonov A., Mahmudov N. Ozbek tilshunosligi tarixi. — Toshkent: Kamolot - Qatortol, 2000. — 172 b.
4. Nurmonov A. Sistem tilshunoslik asoslari (I kurs magistrleri uchun maruzalar matni). — Andijon, 2007. — 127 b.
5. Pozilova N. Ikkinchi shaxs olmoshlarining pragmatik xususiyatlari. //Ozbek tili va adabiyoti. — Toshkent, 1999. №3. — B. 41-43.
6. Raximov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. Filol. fan. nomz.... diss.avtoref. — Samarqand, 1994. — 26 b.
7. Saidxonov M. Noverbal vositalar va ularning ozbek tilida ifodalanishi. Filol. fan. nomz.... diss.avtoref. — Toshkent, 1993. — 26 b.
8. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. — Toshkent: "Fan", 2008. —B.83.
9. Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. — Toshkent: Ozbekiston ME, 2008. — 287 b.
10. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. — Jizzax: Sangzor, 2006. — B. 21.
11. Stolneyker R.S. Pragmatika. // Novoye v zarubejnoj lingvistike. — M., 1985. Выр. XVI. — S. 419-439.
12. Tohirov Z. Metonimik hosila ma'nolarda pragmatik semalar. //Ozbek tili va adabiyoti. — Toshkent, 1983. №3. — B. 28-31.
13. Tohirov Z. O'zbek tilida pragmatik semalarning hosil bolishi va ularda subyektiv munosabatning yuzaga chiqishi. Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. —Toshkent, 1994. — 29 b.